

# **HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA ZOONOMIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING DIAXRON XUSUSIYATLARI**

**Odina Xoshimova Olim qizi,  
NamDCHTI tayanch-doktoranti**

**ANNOTATSIYA:** O‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar turkumi frazeologik tarkibning ko‘p sonlilaridan birini tashkil etadi. Ushbu birliklardagi hayvonlar insonning u yoki bu sifatini anglatadi. Ushbu maqola orqali tillarning umumiy xususiyatlari va farqlarini ko‘rib chiqish maqsad qilingan. Ulardagi o‘xshashliklar, umumiy kelib chiqishi, o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan farqlar har bir xalqning hayoti, geografik sharoiti, urf-odatlari va boshqalar bilan izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologiya, zoonomik so‘zlar, totemlar, metonomik qiyoslash, anatomiq qiyoslash

**ANNOTATION:** The set of phraseological units in the Uzbek and English languages is one of the many phraseological content. Animals in these units represent one or another quality of a person. This article aims to review the common features and differences of languages. Their similarities, common origin, and differences arising from their specific characteristics are explained by the life, geographical conditions, customs, etc. of each nation.

**Key words:** frazeology, zoonomyc words, totems, metonomic comparision, anatomic comparision

**АННОТАЦИЯ:** Набор фразеологизмов в узбекском и английском языках является одним из многих фразеологического содержания. Животные в этих единицах олицетворяют то или иное качество человека. Целью данной статьи является рассмотрение общих черт и различий языков. Их сходство, общность происхождения и различия, вытекающие из специфических особенностей, объясняются бытом, географическими условиями, обычаями и т. д. каждого народа.

**Ключевые слова:** фразеология, зоономические слова, тотемы, тономическое сравнение, анатомическое сравнение.

Jahon tilshunosligida tillarning struktur, semantik hamda funksional xususiyatlarini tadqiq qiluvchi yangi lingvistik fan yo‘nalishlari XX asrning o‘rtalariga kelib shakllana boshladi. An’anaviy fonetika-fonologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis) kabi klassik yo‘nalishlar qatoriga tillarning semantik “dunyosi”ni, funksional xususiyatlarini o‘rganuvchi, o‘rgatuvchi leksikologiya, stilistika kabi sohalari qo‘sildi. [1,620] Jahon tilshunoslik tarixida rus olimi, akademik V.V. Vinogradov tomonidan 1946 yilda e’lon qilingan “Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины” hamda 1947 yili chop etilgan “Основные типы фразеологических единиц в русском языке” kabi mashhur ilmiy asarlari dunyo tillaridagi turg‘un so‘z birikmalarini o‘rganishda katta burilish nuqtasi bo‘ldi. Shu yo‘nalishda Samarqand frazeologiya maktabi asoschilaridan biri, forsiy tillar mutaxassisi Yu.Yu. Avalianining “Исследование в области сложного глагола и глагольной фразеологии”, Sh.Rahmatullayevning o‘zbek frazeologiyasi bo‘yicha ilk bora tartib berilgan “O‘zbek tili frazeologiyasi” kabi asarlar e’lon qilinishi o‘zbek frazeologiyasi borasida olib boriladigan ishlarni boyitib kelmoqda. Jumladan, o‘zbek va ingliz tillarida zoonimik frazeologik birikmalar frazeologizmlar tarkibida ko‘p sonli birliklarini o‘z ichiga olishini qayd etish lozimdir. Ularning aksariyati idiomatik iboralardan tashkil topgan bo‘lib, xalqning ijodiy mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun ular oddiy odamlarning manfaatlari va kundalik tashvishlari bilan bog‘liqdir.

Biz bu qiyosiy frazeologik birikmalarni ham ikki turga salbiy va ijobiy guruhlarga ajratamiz:

1. Odamning salbiy xususiyatlarini bildiruvchi salbiy ma’nodagi zoonimik komponentli frazeologik birikmalar: Blind as a bat -ko‘rshapalakdek ko‘r: butunlay ko‘r, atrofida bo‘layotgan hodisalardan umuman bexabar; nima qilayotganini bilmaydi. Dance like an elephant - fildek raqsga tushmoq, qo‘pol beso‘naqay harakatlar bilan raqsga tushmoq. As weak as a cat- (ijobiy)

mushukday kuchsiz. Butunlay kuchsiz, holsiz, odatda biror bir uzoq davom etgan kasallikdan keyingi holatdagidek. As timed as a hare - quyondek qo'rkoq, juda ham qo'rkoq kimsa haqida. As proud as a peacock -- tovusdek mag'rur As gready as a wolf - bo'ridek ochko'z. As silly as a goose -g'ozdek nodon [3,82]. Yuqoridagi misollarda salbiy ma'noda bat, monkey,cat,wolf va boshqa zoonimlari ishlatalgan.

2. Odamning ijobiy xususiyatlarini bildiruvchi zonomik komponentlar frazeologik birliklar:

Quyidagi zonomik frazeologik birliklarda esa hayvonlarning ayrim ijobiy tomonlari inson xususiyatlari bilan qiyoslaymiz. As bold as a lion - Sherdek jasur,mard, dovyurak. As bee as a bee - Asalaridek band. Doim biror bir foydali ish bilan shugullanish. As wary as a cat - Mushukdek ehtiyotkor, juda ehtiyotkor. As quite as a mouse - Sichqondek jim, sokin, yuvosh kimsa haqida. [2,97]

### **Foydalanimanligi adabiyotlar:**

1. Wilke Edwin. Deutsche Wortkunde. // 6 Aufl. – Leipzig, 1924. – 428 s
2. Виноградов В.В. Стиль Пушкина. -М.: Гослитиздат, 1941.-620 с
3. Маматов Э.А. Хозирги замон узбек адабиётида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент., 1991. p. 82.
4. В.В. Виноградов. Фразеология современного английского языка. М., 1992.p. 97.
5. Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF “BABURNAME”. Gospodarka i Innowacje., 24, 1067-1069.
6. Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN " BABURNAME". The Scientific Heritage, (49-3), 50-51.
7. Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». Sciences of Europe, (45-5 (45)), 46-48.

8. Nurbek Akhmadjonov Signs of a precedent name (example of the name "Berliner Mauer") "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1